

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

XALIMOVA FAYYOZA NAFASOVNA

**O'ZBEKISTONDA MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
MARKETING STRATEGIYASI**

08.00.17 - Turizm va informatsion faoliyati
08.00.14 - Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

UO'K:338.48-6:65(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Xalimova Fayyoza Nafasovna

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishning marketing strategiyasi ... 3

Халимова Файёза Нафасовна

Маркетинговая стратегия развития MICE-туризма в Узбекистане 27

Khalimova Fayyoza Nafasovna

Marketing strategy of MICE tourism development in Uzbekistan 33

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

XALIMOVA FAYYOZA NAFASOVNA

**O'ZBEKISTONDA MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
MARKETING STRATEGIYASI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iq4633 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna
iqtisodiyot fanlari doktori, pofessor

Rasmiy opponentlar

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "3" 12 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1830 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75, faks: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil "17" 11 da 105 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qo'shida iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qo'shida iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.A. Ushtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qo'shidagi bir martalik ilmiy seminar iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmini rivojlantirishga qaratilgan samarali marketing strategiyasi mamlakatlar turistik salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb etish va xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi. Bunday strategiyalar orqali mezbon mamlakatlar xalqaro tadbirlarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirib infratuzilmani modernizatsiya qilishga turtki beradi. Shu bilan birga, MICE turizmini targ'ib qilishda maqsadli bozorlarni aniqlash, raqobatbardoshlik ustunliklarini shakllantirish va marketing vositalarini qo'llash orqali barqaror turistik oqim yaratiladi. Bu esa o'z navbatida, YIM o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va transmilliy hamkorlikning mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "2024-yilda xalqaro miqyosda safar qilgan sayyohlar soni 1,4 milliarddan oshgan. Bu esa 2023-yilga nisbatan 13 % ko'p bo'lib, pandemiyadan keyingi davrda global turizm sektorining barqaror o'sish tendensiyasini aks ettiradi. 2025-yil yakuniga borib butun jahon iqtisodiyotida turizmning bozor ulushi 10 %ga yetishi prognoz qilinmoqda"¹.

Jahon tajribasida MICE turizmining raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqilishi va joriy etilishi muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, xizmat ko'rsatish sifati, mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar paketini shakllantirish, yangi bozor segmentlarini aniqlash hamda ularga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqish orqali MICE turizmi uchun istiqbolli sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari MICE xizmatlarida funktsionallik va qulaylik darajasini oshirib, iste'molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan marketing yondashuvlarini qo'llash imkonini bermoqda. Bugungi kunda MICE turizmini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslarni takomillashtirish, kompleks marketing strategiyalarini ishlab chiqish, hududiy va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish hamda xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasida ta'minlash dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasi nafaqat iqtisodiyotning muhim tarmog'i, balki aholining bandligini ta'minlashga, mamlakat infratuzilmasini rivojlanishiga, xalqaro munosabatlarning yanada yaxshilanishiga samarali hissa qo'shuvchi soha hisoblanib, mazkur turizm bozorida o'ziga xos marketing muhiti shakllangan. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan joylashtirish korxonalari soni 1085 ta, turoperatorlar esa 2621 tani tashkil etadi. 2022-yilda respublikaga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 5,233 million nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 6,626 million nafarga yetib, sezilarli o'sish kuzatilgan. 2024-yilda 7 288,3 million nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Shundan ish maqsadida tashrif buyurganlar 241 ming va tijorat maqsadida 165,1 ming nafarni tashkil etib

¹ <https://en.unwto-ap.org/news/worldtourismbarometer-sept2024/>

MICE turizm provaydirlarini rivojlanishiga ta'sir etmoqda². O'zbekiston Respublikasida MICE turizmini amalga oshiruvchi ochiq va yopiq ko'rgazma maydonlari hamda mehmonxonalar faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, ushbu sohadagi muammolar kuzatilmoqda. Xususan, ommaviy tadbirlar tashkilotchilarining zamonaviy bozor talablariga moslashuvchanligi yetarli emasligi, davlat va MICE turizmiga ixtisoslashgan korxonalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarining shakllanmaganligi, shuningdek, mazkur yo'nalishda malakali mutaxassislar taqchilligi MDH mamlakatlari orasida raqobatbardoshlik pozitsiyasini zaiflashtirishga olib kelmoqda. Qayd etilgan muammolarni hal etish uchun O'zbekistonda MICE turizmi holatini kompleks tahlil qilish, raqobat qobiliyatini oshirishga qaratilgan innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 30-dekabrda 918-son "Turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarkasi va ko'rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. MICE turizmi bo'yicha asosiy ilmiy tadqiqotlar 2003–2016-yillar oralig'ida salmoqli bo'lgan. MICE turizmi marketingini nazariy masalalari xorijlik tadqiqotchilardan J.R. Brent and I. Geoffrey, D. Buhalis, D. Chaffey & Ellis-Chadwick, F. Ellis-Chadwick, A.S. Dick & K. Basu, D. Getz, J. Gretzel, J. Stienmetz, V. Bellás, P. Kotler & K.L. Keller, C. Lovelock & J. Wirtz, V.T. Middleton, R.M. Morgan & S.D. Hunt, A. Parasuraman,

V.A. Zeithaml & L.L. Berry, J.R. Ritchie, B. Ritchie, G.I. Crouch, M.R. Solomon³ va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan S.V. Mitrofanova, O.G. Pyankova, T. Ergunova, N.A. Jabreyeva, K. Khafizova, E.D. Shetinina, S. Dagman, V.G. Shuxova, F.B. Oligova, E.G. Ershov, V. Mitrofanova, S.G. Pyankova, B.O. Taipakova, S.A. Globova⁴ va boshqalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ular tadqiqotlarida MICE turizmini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish masalasiga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, jumladan, turizm sohasida marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirishning nazariy masalalari A.A. Eshtaev, B. Navro'zoda, M.K. Pardayev, I.S. Tuxliyev, A. Abdullayev, N.T. Tuxliyev, O.H. Hamidov, M.T. Aliyeva, S. Safarova, A.T. Mirzayev, A.N. Norchayev, Sh.S. Sayfutdinov, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxadjayeva, A.N. Samadov, R.A. Allayorov, G.S. Sa'dullayeva, Sh.R. Ruziyev kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁵.

³ Brent J. R. and Geoffrey I. The competitive destination : a sustainable tourism perspective. RITCHIE, G.I. Crouch Wallingford, xvii, 272, 2003 CABI publishing; Buhalis, D. (2000). Marketing the competitive destination of the future. *Tourism Management*, 21(1), 97-116.; Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). *Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice*. Pearson.; A. S. Dick & K. Basu (1994). Customer Loyalty: Towards an Integrated Conceptual Framework. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 22(2), 99-113.; D. Getz, (2008). Event tourism: Definition, evolution and research. *Tourism Management*, 29(3), 403-428.; U. Jahon Gretzel, (2021). J. Stienmetz, V. Bellás, Zsuzsa Szent István, P. Kotler, K. L. Keller, (2014). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education; P. Kotler. Marketing places. Attracting investments, enterprises, residents and tourists to cities, communes, regions and countries of Europe. SPb., 2005.; P. Kotler On Marketing Mastering Modern Marketing for Competitive Advantage Written by Bookey; C. Lovelock & J. Wirtz (2016). *Services Marketing: People, Technology, Strategy* (8th ed.). Pearson.; C. Lovelock, & J. Wirtz (2016). *Services Marketing: People, Technology, Strategy* (8th ed.). Pearson.; V. T. C. Middleton, (1994). *Marketing in travel and tourism*. Butterworth-Heinemann.; R. M. Morgan, & S. D. Hunt, (1994). The Commitment-Trust Theory of Relationship Marketing. *Journal of Marketing*, 58(3), 20-38.; A. Parasuraman V. A. Zeithaml & L.L. Berry, (1988). SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality. *Journal of Retailing*, 64(1), 12-40.; J. R. B. Ritchie & G. I. Crouch, (2003). *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. CABI Publishing.; J. R. B. Ritchie & G. I. Crouch, (2003). *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. CABI Publishing.; M. R. Solomon, (2017). *Consumer Behavior: Buying, Having, and Being* (12th ed.). Pearson.

⁴ K., Khafizova The analysis of MICE tourism development in the world and in Uzbekistan, ISMA University -2019, E.D. Shetinina and S. Dagman (2018). Integrated marketing methods of regional tourism development as a factor of socio-ecological and economic stability of the region. *Russian Journal of Entrepreneurship*, E.D. Shetinina и S. Dagman С.П. Градоустroительные аспекты развития индустрии туризма, Москва-2019.; Ф.Б. Олигова Маркетинговая стратегия как инструмент развития сферы туристических услуг региона, Ростов на Дону, 2003.; Е.Г. Прилов Региональный туристический бренд как элемент стратегии маркетинга территории: формирование, оценка, использование Автореферат-2023.; В. Mitrofanova, С. Григорьевна, О.Пьяикова, Т. Вруконова, Н. Жибрсева Продвижение MICE-услуг как источника обеспечения устойчивого развития делового туризма в регионе 2021.; B. Taipakova, (2023). Analysis of the association of MICE tourism development factors (the case of Astana city in Kazakhstan). *Geojournal of Tourism and Societies*.

⁵ A.A. Eshtaev Globalashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tomonida). Doctor of science dissertatsiya avtoreferati –Samarqand, 2019.;

Sh.Dj. Ergashxadjayeva Innovation marketing dardik "Iqtisodiyot" – 2019.; R.A. Allayorov Hududiy turistik resurslardan samarali foydalanishning marketing strategiyasi (PhD) Avtoreferati –Toshkent, 2023. B. Navro'z-Zoda The Destination Marketing Development of Religious Tourism in Uzbekistan (2016), SH. Ruziyev MICE turizm oqidi Qo'qon shahrida turistik adohiyatini ta'g'ib qilish usullari. 2023. A.N Norchayev Zamonauiy turizm infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirish tendentsiyalari. I.f.d. diss. –T., 2021.

² Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi ma'lumoti

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm sohasi hududiy rivojlanishini baholashning kompleks indikatorlarini ishlab chiqish (Taxtakopir, Xojayli, Elikqal'a)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishning marketing strategiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro turizm bozorida MICE turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;

MICE turizmini mintaqaviy rivojlanishida marketing strategiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlarini tadqiq qilish;

MICE turizmini rivojlantirishda xorijiy tajribani o'rganish va O'zbekiston sharoitida qo'llash tamoyillarini umumlashtirish;

O'zbekiston MICE turizmining rivojlanish holatini tahlil qilish;

O'zbekistonda MICE turizmini potentsiali va uni rivojlantirishda innovatsion marketing imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekiston MICE turizmining zamonaviy infratuzilmasini shakllantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishda marketing miks strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish;

O'zbekiston MICE turizmini targ'ib qilishda davlatning iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini ko'rsatib berish;

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasining MICE turizmi bilan shug'ullanuvchi turistik korxonalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishga marketing strategiyasidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, dala va kabinet tadqiqotlari, statistik tahlil, ekspert baholash, SWOT tahlili, anketa so'rovlari o'tkazish va omillar tahlili, PLS-SEM tahlil usullari va ARIMA modelidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "MICE turizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni konferensiyalar, xalqaro anjumanlar, kongress va forumlar hamda ko'rgazmalar tashkil etish va o'tkazish orqali turistik xizmatlarning tarmoqlararo kooperatsiyasini ta'minlash, mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirish hamda turistik xarajatlarning multiplikativ ta'siri orqali mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini o'stirish imkonini beruvchi strategik turizm segmenti jihatidan takomillashtirilgan;

O'zbekistonda "MICE turizmi"ni tashkil etishda respublikada mavjud zamonaviy infratuzilma tarkibiga kiruvchi 200 o'rindan ortiq joyga ega konferenszallar, xalqaro standartlarga mos mehmonxonalar, ko'rgazma pavilonlari va logistika obyektlari asosida maxsus reyestr shakllantirish hamda ushbu obyektlarni baholash uchun asosiy talab mezonlariga ko'ra hududlar bo'yicha MICE obyektlarining potentsial xaritasini yaratish taklifi asoslangan;

marketing strategiyalarining "MICE turizmi"ni rivojlanishiga ta'sirni qisman eng kichik kvadratlar usuli yordamida tuzilmaviy tenglamalarni modellashtrish orqali baholashda yo'l koeffitsiyentlarining o'zaro ta'sir darajalarini "juda kuchsiz" (0 - 0,10), "kuchsiz" (0,10 - 0,30), "o'rtacha" (0,30 - 0,50), "kuchli" (0,50 - 1,00) mezonlari asoslangan;

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlanishiga marketing strategiyasi ta'siri omillarining ekonometrik modellari orqali asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining 2028-yil-ga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xalqaro turizm bozorida MICE turizm industriyasining rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va uslubiy jihatlarini o'rganilgan;

"MICE turizm" tushunchasining mohiyatini asoslash orqali takomillashtirish ta'rif taklif etilgan;

MICE turizmini rivojlantirishda xorijiy tajribalar o'rganilgan va O'zbekiston sharoitida qo'llash tamoyillari umumlashtirilgan;

O'zbekiston MICE turizmining rivojlanish holati tahlil qilingan;

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlanish potentsiali o'rganib chiqilgan va innovatsion marketing imkoniyatlari aniqlangan;

O'zbekistonda yulduzli mehmonxonalar hamda konferensiya markazlarini baholash mezonlari ishlab chiqilib, MICE obyektlari baholangan;

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishda marketing miks elementlariga strategiyalar modellashtrilgan va natijalar aniqlangan;

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish istiqboliga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning marketing tamoyillari borasidagi ilmiy nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining me'yoriy-uslubiy hujjatlari, O'zbekspomarkaz milliy ko'rgazma kompaniyasining manbalari, yulduzli mehmonxonalar va rasmiy statistik ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishga doir marketing strategiyasining nazariy asoslarini chuqur o'rganish hamda milliy sharoitlarga mos konseptual yondashuvni ishlab chiqishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot

natijalari MICE turizmini an'anaviy turlardan farqlash, marketing strategiyalari va milliy brendlash o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash, shuningdek, strategik rejalashtirish va pozitsiyalash elementlarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan xulosa va takliflar O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish uchun baholash mezonlari hamda marketing miks strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu esa xorijiy tashkilotchilarni jalb etish, raqobatbardoshlikni oshirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, davlat idoralari, turizm agentliklari va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish, innovatsion marketing vositalaridan samarali foydalanish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishning marketing strategiyasi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "MICE turizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini konferensiyalar, xalqaro anjumanlar, kongress va forumlar hamda ko'rgazmalar tashkil etish va o'tkazish orqali turistik xizmatlarning tarmoqlararo kooperatsiyasini ta'minlash, mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirish hamda turistik xarajatlarning multiplikativ ta'siri orqali mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini kengaytirish imkonini beruvchi strategik turizm segmenti jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Turizmda elektron marketing" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2022-yil 24-oktyabrda 328-sonli buyrug'i, bilan berilgan nashr guvohnomasi, ro'yxatga olish raqami 328-046). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda strategik turizm segmenti jihatidan takomillashtirilgan "MICE turizmi" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda "MICE turizmi"ni tashkil etishda respublikada mavjud zamonaviy infratuzilma tarkibiga kiruvchi 200 o'rindan ortiq joyga ega konferens-zallar, xalqaro standartlarga mos mehmonxonalar, ko'rgazma pavilonlari va logistika obyektlari asosida maxsus reyestr shakllantirish hamda ushbu obyektlarni baholash uchun asosiy talab mezonlariga ko'ra hududlar bo'yicha MICE obyektlarining potensial xaritasini yaratish taklifi mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishda qabul qilingan "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"da respublika hududlarida turizm va u bilan bog'liq, infratuzilmani rivojlantirish maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan 2025-yil 6-oktyabrda berilgan 03-10-17-10324-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda mavjud zamonaviy infratuzilma obyektlari asosida maxsus reyestr shakllantirish hamda hududlar bo'yicha MICE obyektlarining potensial xaritasini yaratish imkoni yaratilgan;

marketing strategiyalarining "MICE turizmi"ni rivojlanishiga ta'sirini qisman eng kichik kvadratlar usuli yordamida tuzilmaviy tenglamalarni modellashirish orqali baholashda yo'l koeffitsiyentlarining o'zaro ta'sir darajalarini "juda kuchsiz" (0 – 0,10), "kuchsiz" (0,10 – 0,30), "o'rta" (0,30 – 0,50), "kuchli" (0,50 – 1,00) mezonlarini asoslash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida ko'zda tutilgan turizm brendining maqsadli bozorlar (auditoriya) talablaridan kelib chiqib, xorijiy mamlakatlarda O'zbekistonning tarixiy, madaniy, gastronomik, tibbiy va sog'lomlashtirish, arxeologik, ekologik va ekstremal kabi turizmning turlari to'g'risida kontentlar yaratish bosqichlarini tatbiq etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan 2025-yil 6-oktyabrda berilgan 03-10-17-10324-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida marketing strategiyalarining "MICE turizmi"ni rivojlanishiga ta'sirni baholashda yo'l koeffitsiyentlarining o'zaro ta'sir darajasi mezonlarini asoslash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlanishiga marketing strategiyasi ta'siri omillarining ekonometrik modellari orqali asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishda qabul qilingan "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"da 2019–2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirishda turizmning milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, samarali reklama va marketing ishlarini olib borishni takomillashtirish vazifalarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan 2025-yil 6-oktyabrda berilgan 03-10-17-10324-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda MICE turizmini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi marketing strategiyalari hamda asosiy faoliyat ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va aprobatyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qililganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, 6 ta mahalliy jurnallarida, 4 ta xorijiy jurnallarda va 5 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi hamda asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“MICE turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, xalqaro turizm bozorida MICE turizmi industriyasini rivojlanishida marketing strategiyalaridan foydalanish nazariy asoslandi, MICE turizmini mintaqaviy rivojlanishida marketing strategiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlari, MICE turizmi industriyasini rivojlantirish bo'yicha xorij mamlakatlar tajribasi o'rganilgan va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish turizm sohasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, festivallar, madaniy-ko'ngilochar dasturlar, sport musobaqalari, san'at namoyishlari, siyosiy forumlar, shuningdek, korporativ uchrashuvlar, konferensiyalar, ko'rgazmalar kabi keng faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar faqatgina tadbiri o'tkazish bilan cheklanmay, balki uni strategik rejalashtirish, marketingga yo'naltirish, xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash, logistika va xavfsizlikni boshqarish, mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan takliflarni ishlab chiqishni talab etadi.

1-jadval

MICE turizmiga xalqaro tashkilot va olimlar tomonidan berilgan ta'riflar⁶

Xalqaro tashkilotlar va muallif	Ta'riflar
ICCA (International Congress and Convention Association)	MICE turizm – bu ilmiy, tijorat, madaniy va boshqa sohaga oid tadbirlarni tashkil qilish va ularni o'tkazish orqali iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi turizm tarmog'i
UN-TOURISM" (Birlashgan Millatlar Turizm Tashkiloti)	MICE turizmi – bu uchrashuvlar, biznes anjumanlari va ko'rgazmalar orqali sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizm sohasi bo'lib, u turizmning yuqori daromadli segmenti hisoblanadi
C. Davidson	MICE turizmi – bu konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan turizm sohasi bo'lib, u katta iqtisodiy samaradorlikka ega
Holloway	MICE turizmi – bu yuqori daromadli sayohat turlari bo'lib, ular ishbarmonlik hamkorligi va tarmoq yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

So'nggi yillarda xalqaro turizm maydonida jadal rivojlanayotgan MICE turizmi (Meetings – uchrashuvlar, Incentives – rag'batlantiruvchi safarlar,

⁶ Muallif tadqiqotlari asosidagi ishlanna.

Conferences – konferensiyalar, Exhibitions – ko'rgazmalar) ko'plab mamlakatlar iqtisodiyoti va turizm sohasi uchun strategik segment sifatida e'tirof etilmoqda.

1-jadvalda ICCA va BMT Jahon Turizm Tashkiloti ta'riflari hamda C.Davidson va Hollowaylarning ilmiy yondashuvlari asosida MICE biznes-turizmining an'anaviy ommaviy tadbirlardan tubdan farq qilishi yoritilgan. MICE turizmi to'y va bayramlardan farqli ravishda biznes manfaatlariga xizmat qiluvchi uchrashuvlar, konferensiyalar, ko'rgazmalar va korporativ yig'ilishlarni qamrab oladi.

Shuningdek, muallif tomonidan **“MICE turizmi”** tushunchasining mualliflik ta'rifi taklif etilib, **“MICE turizmi”** tushunchasining iqtisodiy mazmuni konferensiyalar, xalqaro anjumanlar, kongress va forumlar hamda ko'rgazmalar tashkil etish va o'tkazish orqali turistik xizmatlarning tarmoqlararo kooperatsiyasini ta'minlash, mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirish hamda turistik xarajatlarning multiplikativ ta'siri orqali mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini o'stirish imkonini beruvchi strategik turizm segmenti sifatida qaraladi. Shu bois, uni rivojlantirishda marketing strategiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, quyida rivojlanishiga marketing strategiyalarining ta'siri tahlil qilinadi (2-jadval).

2-jadval

MICE turizm yo'nalishining rivojlanishida marketing strategiyalarini ta'siri⁷

Tarkibiy elementlar	Tavsif	Natijasi
7 P	Marketing mix MICE turizmida mahsulot-tadbirlar, narx, joy, siljitish, xodimlar, jarayon va jismoniy muhit	mijozlarga xavfsiz, sifatli xizmat ko'rsatish va jarayon jozibadorligini oshirish orqali ishtirokchilar sadoqatini oshirib raqobatbardoshlikni kuchaytirish
Destinatsiya marketing	(vebinarlar, bloglar, video marketing) bu ma'lum bir mintaqaga yoki joyni ilgari surish uchun mo'ljallangan joy haqida xabardorlik va qiziqishni oshirishga qaratilganligi	tashrif buyuruvchilar soni va daromadning ko'payishiga olib keladi
STP	(segmentatsiya, targeting, positioning) segmentatsiya, maqsadli va joylashishni aniqlash	sotishni ko'paytirish, bozor ulushini oshirish, brend xabardorligini oshirish va mijozlarning ijobiy sharhlari orqali o'lash
Raqamli marketing	(SEO, SMM, email-marketing) xalqaro auditoriya hamkorligi, aniq targeting orqali mijozlarni jalb qilish	MICE tadbirlarida ishtirokchilar soni ko'payadi
Innovatsion marketing	yangi mahsulot yoki xizmatlarni bozorga chiqarishda kreativlik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, big data, AR/VR vositalar, mijozlar bilan aloqani individuallashtirish	raqobatchilardan ajralib turish orqali ko'proq mijoz jalb etiladi, brend imijining yaxshilanadi, sotuvlar va daromadlar oshadi, marketing xarajatlari kamayadi

⁷ Muallif tadqiqotlari asosidagi ishlanna.

2-jadvalda ko'rsatilganidek MICE turizmini rivojlantirishda zamonaviy marketing yondashuvlarini integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 7P marketing miksi modeli asosida xizmatlarning har bir elementi chuqur tahlil qilinib, iste'molchilar ehtiyojlariga moslashtiriladi. Bu yondashuv MICE xizmatlarining sifatini oshiradi hamda ishtirokchilar uchun innovatsion va qulay muhit yaratadi. Destinatsiya marketingi MICE tadbirlarini o'tkazish joyining jozibadorligini oshirish, barqaror tashrif oqimini ta'minlash va hudud brendini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

STP modeli auditoriya segmenatsiyasi va maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqishni ta'minlaydi, innovatsion raqamli texnologiyalar esa MICE turizmining xalqaro raqobatbardoshligi va operatsion samaradorligini kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning **"O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish holati tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda MICE turizmini targ'ib qilishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinib, MICE turizmiga asosiysi ta'sir etuvchi omillar siyosiy barqarorlik, xalqaro hamkorlik, qulay infratuzilma, sifatli xizmat, jozibador targ'ibot va sohadagi kreativlik ekanligi ko'rsatib berilgan.

O'zbekistonning Xitoyda o'tkaziladigan "CSITE", "GITF" va "ITE" kabi nufuzli xalqaro turizm ko'rgazmalaridagi faol ishtiroki, shuningdek, Xitoyning 9 ta yirik shahrida tashkil etilgan targ'ibot tadbirlari mamlakatda MICE turizmini rivojlantirishga muhim turtki bermogda. "Shinjon-O'zbekiston" hamda "Ipak yo'li sarguzashtlari" singari qo'shma yo'nalishlar esa biznes uchrashuvlari, ko'rgazmalar va madaniy almashinuvlar orqali xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Quyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha va viloyatlar kesimida yulduzli mehmonxonalar soni keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha va viloyatlari kesimida yulduzli mehmonxonalar soni (2024-yil) ⁸.

Viloyatlar / yulduzlar	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Farg'ona viloyati	Jizzax viloyati	Namangan viloyati	Navoiy viloyati	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Qashqadaryo viloyati	Samarqand viloyati	Sirdaryo viloyati	Surxondaryo viloyati	Toshkent shahri	Toshkent viloyati	Xorazm viloyati	Jami Respublika bo'yicha
2*			3					2				1			6
3*	2	4	5	1	2	1	1		9	1	3	16	2	4	51
4*		2				1			3			10			16
5*								2				3		1	6
jami	2	6	8	1	2	2	1	2	14	1	3	30	2	5	79

3-jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekistondagi yulduzli mehmonxonalarning

⁸ Muallif tadqiqotlari asosidagi ishlanma.

umumiy soni 2024-yilda 79 tani tashkil etgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (38 %) va Samarqand viloyatida (17,7 %) joylashgan bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich esa Buxoro (7,5 %), Farg'ona (10 %), (Xorazm 6,3 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda, eng kam ko'rsatkich, Andijon (2,5%), Namangan (2,5%), Navoiy (2,5%), Qashqadaryo viloyatlarida (2,5%) va Qoraqalpog'iston respublikasida (1,3%), Jizzax (1,3%) va Sirdaryo (1,3%) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

MICE tadbirlarini tashkil etishda bino va mehmonxonalarni tanlash jarayoni xalqaro amaliyotga, xususan, ICCA xalqaro tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan mezonlarga asoslanadi (4-jadval).

4-jadval

MICE tadbirlarini tashkil etuvchi mehmonxonalar uchun mezonlar tavsifi⁹

Mehmonxonada tadbirlarni tashkil etish imkoniyatlari	Mezonlar tavsifi	Baholash mezonlari
Joylashuv (Location)	– shaharning markaziy qismida, transport qulay bo'lgan hududda joylashgan bo'lishi – aeroport, vokzal, metro va boshqa transport tarmoqlariga yaqin lokatsiyada joylashuvi – xavfsizlik darajasi yuqori bo'lgan joyda bo'lishi	0–5
Konferensiya va majlis zallari	– turli hajmdagi (kichik, o'rta, katta) zal va majlis xonalari – konferens-zallar (200+ o'rinni) – xalqaro standartlarga mos xizmatlar – ko'rgazma burchagi – o'rindiqlar moslashuvchan joylashuvi: "klass", "U-shakl", "banket" uslubida bo'lishi	0–5
Texnik jihozlar	– projektorlar, LED ekranlar, monitorlar – sifatli ovoz tizimi (mikrofonlar – simli va simsiz) – sinxron tarjima uchun jihozlar (agar xalqaro tadbir bo'lsa) – yoritish tizimi (sahni yoritilishi, fon yoritilishi) – tez va barqaror Wi-Fi / internet aloqasi (mehmonlar uchun alohida tarmoq) bo'lishi	0–5
Oziq-ovqat va ichimlik (Catering)	– kofe-breaklar, tushlik va kechki ovqatni tashkil etish imkoniyati – maxsus menyular (vegetarian, halol, allergenlarga mos) – banket va rasmiy tadbirlar uchun ovqatlanish xizmati mavjudligi	0–5
Yotoqxona fondi	– katta miqdorda xonalar (delegatlar soniga qarab) – turli toifadagi xonalar (standard, business, suite) – qulayliklar: mini-bar, ish stoli, dazmollash vositalari, seyf va h.k. bo'lishi	0–5

⁹ Muallif tadqiqotlari asosidagi ishlanma.

Qo'shimcha qulayliklar	– transport xizmatlari (aeroport-mehmonxona transferi) – avtoturargoh – SPA, sport zali, basseyn (delegatlar dam olishi uchun) – restoran, kafe, barlar – biznes markaz (printer, skaner, kompyuterlar) bo'lishi	0–5
Xavfsizlik va maxfiylik	– kamera nazorati, xavfsizlik xizmatlari – kirish nazorati, tadbir ishtirokchilari uchun alohida kirish-chiqish yo'laklari – maxfiy muzokaralar uchun yopiq xona bo'lishi	0–5
Marketing materiallari va brending imkoniyati	– raqamli ekranlar yoki bannerlar uchun joylar – tadbir uchun logotip, brend atributlarini joylashtirishga ruxsat bo'lishi kerak	0–5

ICCA xalqaro tashkilot mezonlariga zamonaviy infratuzilma, kamida 200 o'rinli konferensiya zallari mavjudligi, so'nggi besh yil davomida xalqaro tadbirlarni tashkil etish tajribasi, a'zolik talablari hamda professional tavsiyalar kiradi. Shu bilan birga, turizmda mavsumiylik omili hisobga olinib, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yulduzli mehmonxonalar va konferensiya inshootlari uchun maxsus baholash mezonlari ishlab chiqildi hamda MICE obyektlari reyestri shakllantirildi.

Yuqoridagi 4-jadvalda mehmonxonalarda MICE tadbirlarini o'tkazish imkoniyatlari ko'rsatilgan bo'lib, ular ma'lum mezonlar asosida baholangan. Eng avvalo, mehmonxonaning joylashuv qulayligi tadbir muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi. Konferensiya va majlis zallarining hajmi va o'rindiqlarni moslashuvchan joylashtirish imkoniyati, ishtirokchilarni zarur texnik jihozlar bilan ta'minlash darajasi hamda ovqatlanish xizmatlarining xavfsiz va sifatli bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mehmonxonada qo'shimcha qulayliklar konferensiya zallari, texnik jihozlar, dam olish va rekreatsiya xizmatlar tadbirlarning sifat darajasini oshiradi. Shu bilan birga, marketing materiallari va brending strategiyasi mehmonxonaning xalqaro bozordagi taniluvchanligini kuchaytirib, MICE segmentida raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Respublika hududlarini MICE destinatsiyalari sifatida baholashda geografik joylashuv, infratuzilma rivojlanganlik darajasi, xizmat ko'rsatish sifati, qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligi hamda xavfsizlik va barqarorlik omillari asosiy mezonlar tizimini tashkil etadi. MICE joylari tadbirlar samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Osiyo mamlakatlarida bu borada Asean MICE Venue Standards (AMVS) joriy etilgan bo'lib, Tailand Qirolligi tomonidan ishlab chiqilgan va AMVS tomonidan sertifikatlangan TMVS xizmat sifati, salohiyat va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. Ushbu standartlar uchta yo'nalishni qamrab oladi: yig'ilish xonalari, ko'rgazma maydonlari va tadbir o'tkaziladigan joylar. Shuningdek, Xalqaro Kongress va Konvensiya Assotsiatsiyasi (ICCA) tomonidan 2022-yilda e'lon qilingan hisobotda xalqaro assotsiatsiyalar yig'ilishlarini o'tkazishda shaharlarni tanlash mezonlari tahlil qilingan¹⁰. Shunga

¹⁰ Klinmalai, S. va Kaewlai, P., 2024. Assessment and Selection Criteria for MICE Destinations and Convention Centers in Thailand. Journal of Architectural/Planning Research and Studies (JARS), 21(2).

ko'ra, O'zbekiston hududlarining MICE markazlari sifatida tasniflovchi mezonlar tizimi 5-jadvalda aks ettirilgan.

Baholash shkalasi 0 dan 5 gacha bo'lib, har bir mezon hududning raqobatbardoshligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Joylashuv va infratuzilma mezonlari hududning transport aloqalari hamda yirik tadbirlarni qabul qilish imkoniyatlarini belgilaydi. Xizmat sifati xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini baholash imkonini beradi. Qo'shimcha imkoniyatlar hududning turistik jozibadorligi va qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatini ko'rsatadi.

5-jadval
O'zbekiston hududlarining MICE markazlari sifatida baholash mezonlari¹¹

Mezonlar	Tavsifi	Miqdori	Baholash shkalasi ¹² (0–5)
Joylashuv	Geografik qulaylik, trans-port infratuzilmasi, aero-port va temiryo'l aloqalari	20 daqiqa	(0–5)
Infratuzilma	Yulduzli mehmonxonalar (3*-5*) konferensiya zallari (+200) ko'rgazma markazlari (+400)	+4 +4 +1	(0–5)
Xizmat sifati	SERVQUAL modelining 5 asosiy o'lchovi jismoniy muhit ishonchlilik tezkorlik ishonch uyg'otish hamjihatlik, e'tibor	jihozlar, texnika, xodimlar aniq va ishonch vaqt va sifat bilim, malaka, odob-axloqi xodimlarning mijozlarga g'amxo'rliqi	(0–5)
Qo'shimcha imkoniyatlar	Madaniy obidalar, sayyohlik obyektlari, gastronomiya	muzey, teatr, tarixiy obidalar, tabiiy, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy resurslar ovqatlanish madaniyati, milliy taomlar, pazandalik san'ati	(0–5)
Xavfsizlik va barqarorlik	Siyosiy-iqtisodiy barqarorlik, xavfsizlik choralari	siyosiy holati, huquqiy tizimning ishonchlilik, xalqaro reytinglar, valyuta barqarorligi, investitsiya muhiti, kriminal holat, transport xavfsizligi, favqulodda tayyorgarlik, Xalqaro talablar – ISO 31000 mosligi	(0–5)

Hududlarning xavfsizligi va barqarorligi esa siyosiy-iqtisodiy muhitning ishonchlilikini belgilaydi. Siyosiy-iqtisodiy barqarorlik xorijiy va mahalliy investorlar hamda tashrif buyuruvchilar uchun asosiy kafolat sifatida qaratiladi. Obyektlarning ommaviy tadbirlar tashkil etishda favqulodda tayyorgarligi turistik imij, investitsion joziba va ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlash bilan birga,

¹¹Tailand tajribasi asosida muallif ishlanmasi.

¹² Izoh: 4.5 – 5.0 → Yuqori potentsial, 3.5 – 4.4 → O'rta potentsial, 2.8 – 3.4 → Boshlang'ich potentsial.

mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va global MICE bozordagi nufuzini oshiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Yuqoridagi 5-jadval MICE obyektlarini kompleks baholash va rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashda ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi 6-jadvalda hududiy MICE turizmini potentsial Indekslish darajasi keltirilgan.

6-jadval
Hududiy MICE turizmini potentsial indekslash darajasi¹³

Hududlar	Joylashuv (0-5)	Standartlarga muvofiqlik (0-5)	Xizmat sifati (0-5)	Transport-logistika (0-5)	Qo' shimcha xizmatlar (0-5)	Integral indeks	Potentsial darajasi
Toshkent shahri	5	5	5	5	4	4.8	Yuqori potentsial
Samarqand shahri	4	4	4	4	4	4.0	O'rta potentsial
Buxoro shahri	4	3	3	3	3	3.2	Boshlang'ich potentsial

5-jadvalda keltirilgan mezonlar asosida 6-jadval shakllantirildi, unga ko'ra Toshkent, Samarqand va Buxoro hududlarining MICE salohiyati baholandi. Natijalarga ko'ra, Toshkent – yuqori, Samarqand – o'rta, Buxoro esa boshlang'ich potentsialga ega ekani aniqlandi. Hududlar bo'yicha yig'ilgan ballar o'rtacha ko'rsatkich sifatida olinib, integral indeks hisoblandi.

Respublikadagi ommaviy tadbirlarning asosiy qismini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tashkil etadi. Quyidagi 7-jadvalda O'zbekiston hududlarida yillar kesimida xalqaro va respublika miqyosida tashkil etilgan ommaviy tadbirlar soni keltirilgan.

7-jadval
O'zbekistonda tashkillashtirilgan ommaviy tadbirlar soni (yillar kesimida)¹⁴

№	Tadbir turlari	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Xalqaro darajadagi tadbirlar soni	45	45	60	75	5	65	78	80	89
2.	Respublika miqyosidagi tadbirlar soni	46	40	44	47	10	45	50	49	53

Ushbu 7-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, 2016–2024-yillar davomida O'zbekistonda xalqaro va respublika miqyosidagi tadbirlar soni barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2020-yilda pandemiya tufayli keskin pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab tiklanish jarayoni boshlangan.

2022-yilda 78 ta xalqaro tadbir o'tkazilgan bo'lib, bu ko'rsatkich

¹³ Tayland tajribasi asosida muallif ishlanmasi.

¹⁴ Vazirlar Mahkamasining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2019-yildagidan yuqori natijani qayd etdi. 2024-yilda esa 89 ta xalqaro va 53 ta respublika miqyosidagi tadbirlar tashkil etilib, sohaning eng yuqori ko'rsatkichiga erishildi. Ushbu dinamika O'zbekistonning MICE turizmi turizm bozorida izchil rivojlanayotganini va global inqirozlardan keyin ham tez tiklanish salohiyatiga ega ekanini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. 2024-yilga O'zbekiston Respublikasi viloyatlari kesimida tashkillashtirilgan tadbirlar soni¹⁵


2024-yilda O'zbekiston hududlari bo'yicha madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar tadbirlar tahlili Toshkent shahrida eng yuqori ko'rsatkich (40 ta) qayd etilganini ko'rsatadi. Xorazm (29 ta), Toshkent (28 ta) va Buxoro (27 ta) viloyatlari keyingi o'rinlarni egallagan bo'lsa, Andijon viloyati 11 ta tadbir bilan eng past natijani ko'rsatgan. Umuman, tadbirlarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlangani va ayrim viloyatlarda rivojlanish salohiyati pastligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston MICE turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish”** deb nomlangan uchinchi bobida, marketing miks strategiyalaridan samarali foydalanish MICE turizmida ishtirokchilarning tadbirlardan qoniqish darajasini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Turistlarning MICE tadbirlaridagi ishtirokida ularning kutilgan natijalar bilan real tajriba o'rtasidagi muvofiqlik darajasi iste'molchi qoniqishining mezonini sifatida namoyon bo'ladi hamda MICE xizmatlarining sifat samaradorligini baholashda asosiy indikator vazifasini bajaradi.

O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishda 7P marketing miks strategiyalarini takomillashtirish orqali sohaning samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va turizm industriyasini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar asosida MICE turizmida 7P marketing elementlaridagi strategiyalar va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorligi bo'yicha asosiy natijaviy omillarga nisbatan O'zbekistonning Toshkent va Samarqand viloyatlarining mavjud holatlari tahlili qilindi. Mazkur


¹⁵ Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi.

tahlilni amalga oshirishning konseptual sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. 7P marketing strategiyalarining MICE turizmini rivojlanishiga ta'sirni baholash modeli¹⁶.

2-rasmda MICE turizmida 7P marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari keltirilgan. Mazkur so'rovnoma uch asosiy qismdan tashkil topgan. Birinchi qism respondentlarning ishtirokchi segmentini aniqlashga yo'naltirilgan. Ikkinchi qism MICE turizmi sohasida 7P marketing strategiyalarining amaliy qo'llanilish holatini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, har bir "P" elementi bo'yicha uchta indikator savol ishlab chiqilgan va ular Likert shkalasi asosida baholangan. Uchinchi qismda esa respondentlarning MICE turizmining asosiy samaradorlik natijalari haqidagi qarashlari, ya'ni qoniqish, sodiqlik va ishonch darajalariga oid fikrlari o'rganilgan. Ushbu anketa natijalari MICE turizmi bo'yicha strategik marketing yondashuvlarini shakllantirish va ularning amaliy samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.



3-rasm. MICE turizmi rivojlanishida 7P marketing strategiyalarining ta'sirini PLS-SEM modeli asosida baholash¹⁷.

¹⁶ Muallif tadqiqotlari asosidagi ishlanma.

3-rasmda 7P marketing strategiyalari MICE turizmi rivojlanishiga ta'sirni PLS-SEM (Partial Least Squares Structural Equation Modeling) modeli asosida baholash natijalari keltirilgan. PLS-SEM modeli murakkab konseptual modellardan latent o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqliklarni aniqlash uchun ishlatiladi. Rasmda keltirilgan sariq bloklar – kuzatilgan indikatorlarni ifodalaydi (o'lchov elementlari). Ko'k doiralar – latent o'zgaruvchilar (konstrukt) bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri o'lchab bo'lmaydigan tushunchalarni modellashtirishda qo'llaniladi. Qora chiziqlar latent o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni anglatadi. Asosiy natijalar yo'l koeffitsiyentlari (strelkalar ustidagi sonlar) – o'zgaruvchilar orasidagi ta'sir kuchini anglatadi. 7P marketing strategiyasining har bir komponenti bo'yicha foydalanuvchi qoniqish va ishonchini o'lchash uchun tuzilgan Likert shkalasidagi ko'p savollik (multi-item) so'rovnoma asosida empirik tadqiqot olib borildi.

Yo'l koeffitsiyentlari PLS-SEM usulida regressiya koeffitsiyentlari latent o'zgaruvchilarning mustaqil o'zgaruvchidan (exogenous variable) bog'liq o'zgaruvchiga (endogenous variable) bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi. Odatda -1 dan +1 gacha bo'lgan qiymatlar olinadi. Musbat qiymatlar → mustaqil o'zgaruvchi (X) bog'liq o'zgaruvchi (Y) ga musbat ta'sir qiladi (ya'ni, X oshsa, Y ham oshadi). Manfiy qiymatlar → mustaqil o'zgaruvchi (X) bog'liq o'zgaruvchi (Y) ga manfiy ta'sir qiladi (ya'ni X oshsa, Y kamayadi).

Yo'l Koeffitsiyentlari (β) o'zaro ta'sir darajalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi. Ta'sirlar kuchli va kuchsiz, ijobiy (+) va salbiy (-) bo'lishi mumkin (8-jadval).

8-jadval

Yo'l koeffitsiyentlarini baholash mezonlari¹⁸

Yo'l koeffitsiyenti (β)	Ta'sir kuchi	Interpretatsiya
0.00 – 0.10	Juda kuchsiz	Muhim emas yoki noma'lum
0.10 – 0.30	Kuchsiz	Ta'sir bor, lekin kuchli emas
0.30 – 0.50	O'rtacha	Ta'sir mavjud va ahamiyatli
